

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent tibbiyot akademiyasi
rektori A.K.Shadmanov

20 23 yil «25» 04

**BOLALAR VA O‘SMIRLAR GIGIYENASI
MODUL DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000	–	Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘minot
Ta‘lim sohasi:	910 000	–	Sog‘liqni saqlash
Ta‘lim yo‘nalishlari:	60910400	–	Tibbiy profilaktika ishi

Toshkent -2023

Modul kodi BO‘G16-1015		O‘quv yili 2023/2024; 2024/2025; 2025/2026	Semestr 6-7-8-9-10	Kreditlar 15	
Modul turi Majburiy		Ta‘lim tili O‘zbek/rus		Xaftadagi dars soatlari 3/2/2/4/4	
1.	Modul nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)		Mustaqil ta‘lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi	225		225	450
2.	<p>I. Modulning mazmuni</p> <p>Ushbu modul dasturi O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta‘lim standarti va bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi malaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o‘qitish jarayoniga tadbqiq etib, talabani nazariy ma‘lumotidan boshlang‘ich amaliy ko‘nikmalarni fantomlarda bajarishga o‘rgatib va orttirilgan ko‘nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali amaliyot bilan uyg‘unlashtirgan holda mustaqil ravishda bolalar va o‘smirlarning har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashga va ularning sog‘lom voyaga yetishiga zamin yaratib beradi. Bunda asosiy o‘rindi sog‘liqni saqlashda profilaktika yo‘nalishini ta‘minlovchi mutahassislariga qaratilgan. Dasturning maqsad va vazifalarini yechimi yakunida talaba gorizontol va vertikal integratsiya jarayonlarida olgan bilim va amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirib, yetuk, raqobatbardosh, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan bolalar va o‘smirlar gigiyenasi vrachi bo‘lib shakllanadi.</p> <p>Bolalar va o‘smirlar gigiyenasi – bolalar va o‘smirlar jamoasini o‘sish va rivojlanishini mustahkamlash, ularning salomatlik holatini muhofaza qilish, gigienik talablarga mos keladigan ta‘lim va tarbiya sharoitini yaratish, turli ta‘lim muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalar va o‘smirlar salomatlik holatini yaxshilash va ular orasida kasalliklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.</p> <p>Bolalar va o‘smirlar gigiyenasining asosiy jihatlari turli ta‘lim muassasalarida bolalar va o‘smirlar salomatlik holatni himoyalash va mustahkamlashga qaratilgan sanitariya me‘yorlari, qoidalari hamda ta‘lim va tarbiyaga qulay sharoitlar yaratish, turli ta‘lim muassasalarini loyihalashtirish va qurish, kun tartibini to‘g‘ri tashkillashtirish, ta‘lim va tarbiyaga qulay gigienik sharoit yaratish, bolalar va o‘smirlar gormonik rivojlanishi va funktsional holatini shakllantirish hamda yuqori ishlash qobiliyatini ta‘minlashga qaratilgan sog‘lomlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish katta o‘rin tutadi.</p>				

Bolalar va o'smirlar gigienasi moduli talabalarda mutaxassislikka oid tafakkur va dunyoqarashni shakllantirishda katta ahamiyatga egadir. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulini chuqur o'rganish tegishli sohalar muammolarini hal qilishda muhim o'rin tutadi hamda bo'lg'usi umumiy gigienist- epidemiolog vrachlarni klinik fikrlash, kasalliklarni oldini olish uchun zamin yaratib beradi.

Modulni o'qitishdan maqsad – nazorat ostidagi ob'ektlarda davlat sanitariya nazorati olib borish uchun nazariy va amaliy tayyorgarlikni ta'minlash, mulkchilikning shakllaridan qat'iy nazar turli ta'lim muassasalarida Davlat sanitariya nazorati o'tkazishda amaliy ko'nikmalarni o'rganishdan iborat. Buning uchun turli ta'lim muassasalarida bolalar va o'smirlar salomatlik holatini himoyalash va mustahkamlashga qaratilgan sanitariya me'yorlarini, ta'lim va tarbiyaga qulay sharoitlar yaratishni, turli ta'lim muassasalarini loyihalashtirish va qurish, bolalar va o'smirlar kun tartibini to'g'ri tashkillashtirishni o'rgatish kerak.

Modulning vazifasi – bolalar va o'smirlar jamoasi salomatlik holati va jismoniy rivojlanishini o'rganish va taxlil qilish; bolalar va o'smirlar salomatlik holatiga tashqi muhit omillarini tasirini gigienik baholashni o'rganish; bolalar va o'smirlar muassasalarini loyihalashtirish, qurish va qayta qurishda davlat sanitariya nazorati olib borish, bolalar jihozlarini ishlab chiqarish ustidan davlat sanitariya nazorati olib borish; bolalar talim tarbiya sharoitini gigienik baholash; turli ta'lim muassasalarida xodimlar va tarbiyalanuvchilar orasida sog'lom turmush tarzini tashkillashtirish.

II. Asosiy nazariy qism

II.I. Modul tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

6-semestr:

1-mavzu. Bolalar va o'smirlar gigienasi moduli va vazifalari. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining o'quv va ilmiy modul sifatida rivojlanish tarixi.

Modulning zamonaviy tibbiyot sohasidagi ilmiy va amaliy tushunchasi, bolalar va o'smirlar gigienasining asosiy muammolarining tavsifi, o'suvchi organizmning salomatligini saqlashda uning maqsadi va vazifalari. Zamonaviy tekshirish usullari, boshqa profilaktik tibbiyot sohalari bilan aloqalari. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining tarixi va asosiy rivojlanish bosqichlari.

2-mavzu. O'suvchi organizm o'sish va rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.

Bolaning o'sish va rivojlanishiga ijtimoiy gigienik, biologik, ekologik

omillarning ta'siri. Yosh davriyliligi va uning gigienik me'yorlashtirishda tutgan o'rni. O'suvchi organizm o'sish va rivojlanishi va uning asosiy qonuniyatlari, bolaning o'sish va rivojlanishiga ijtimoiy gigienik, biologik va ekologik omillarning ta'siri, yosh davriyliligi va uning gigienik me'yorlashtirishda tutgan o'rni.

3-mavzu. Kasallanish, uning bolalar orasida yosh xususiyatlari bo'yicha tarkibi.

Bolalar va o'smirlar salomatlik holati va unga turli omillarning ta'siri. Salomatlik ko'rsatkichlari va guruhlari. Kasallanish va uning bolalar orasida yosh xususiyatlari bo'yicha tarkibiy tuzilishi. Bolalar va o'smirlar orasida kasalliklarning tarqalish tarkibi va uning ahamiyati.

4-mavzu. Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish tartibi. Akseleratsiya va uning nazariyasi.

Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish tartibi va uning yosh guruhlari orasidagi me'yorlari. Akseleratsiya va uning nazariyasi. Bolalar va o'smirlar jismoniy rivojlanish me'yorlari va uning baholash usullari. Akseleratsiya. Akseleratsiya gipotezalarini sabablari va salomatlik holatiga aloqasi.

7-8 semestr:

1-mavzu. Maktabni loyihalashtirish va qurishning gigiyenik asoslari.

Umumta'lim maktablarini qurish sohasida davlat sanitariya nazorati o'rnatish. Bolalar muassasalarini loyihalashtirish, qayta ta'mirlash va foydalanishga topshirishni gigienik asoslari. Umumta'lim maktablarini loyihalashtirishning gigienik asoslari. Yer maydoni va binoga qo'yilgan gigienik talablar.

2-mavzu. O'zbekiston sharoitida TTM havo-issiqlik almashinuvi va yoritilganlik gigiyenik asoslari.

Yoritilganlik tartibini gigienik asoslash va uning o'suvchi organizmga ta'siri (suyak, ko'rish va boshqa tizimlarga). Havo-issiqlik almashinuvi va yoritilganlikning gigienik me'yorlari. Turli ta'lim muassasalarida yoritilganlik tartibi va ultrabinafsha nurlar yetishmovchiligi va uning oldini olish tadbirlari.

3-mavzu. Maktabda o'quv jarayonini gigienik asoslari.

Maktabda o'quv jarayonining gigienik asoslari. Bolalarni o'qitishda kompyuterlar va EHM dan foydalanishni gigienik aspektlari. O'qitish davomida o'quv jarayoniga EHM va kompyuterlarni qo'llash.

4 –mavzu. Maktab jixozlariga bo'lgan asosiy gigienik talablar.

Tana holatini gigienik asoslari. Bolalar va o'smirlar jihozlarining turlari. Sinf xonalari asosiy jihozlari. Differentsiya. Distantiya. Jihozlar va ularni

joylashtirishga qo'yilgan gigienik talablar.

5-mavzu. Bolalar va o'smirlar kontingentlarini mehnatga o'rgatishning gigiyenik asoslari.

Bolalar muassasalarida mehnat ta'limini tashkillashtirishga qo'yilgan gigienik talablar. Bolalar va o'smirlar mehnat faoliyatiga funktsional xususiyatlarini shakllanishi, o'suvchi organizmiga mehnatning ta'siri. Turli kasblarda o'smirlarni kasbga ajratish va kasbiy shifokor maslahatini tashkillashtirishning tibbiy asoslari.

6-mavzu. O'smirlarni kasbga yo'naltirishning gigienik asoslari

Turli kasblarda o'smirlarni kasbga ajratish va kasbiy shifokor maslahatini tashkillashtirishning tibbiy asoslari. Maktab o'quvchilari va o'smirlarni kasbga yo'naltirishni ahamiyati. Shifokor kasbiy maslahatini mezonlari. O'smirlar mehnatini himoya qilishning asosiy qonuniy xujjatlari.

Yozgi sog'lomlashtirish maskanlarini joylashishining gigiyenik asoslari.

Yozgi sog'lomlashtirish maskanlarini joylashishini, ishini to'g'ri tashkillashtirilishini nazorat qilinishi.

9-10 semestr:

1-mavzu. SOE va JSX BO'G varchining vazifalari. SOE va JSX BO'G varchining vazifalari va ularning bajaradigan ishlari bilan tanishtirish.

2-mavzu. O'smirlarning kasbga yo'naltirishning tibbiy fizologik aspektlari. Turli kasblarda o'smirlarni kasbga ajratish va kasbiy shifokor maslahatini tashkillashtirishning tibbiy asoslari. Maktab o'quvchilari va o'smirlarni kasbga yo'naltirishni ahamiyati.

3-mavzu. Bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiyalashning gigiyenik asoslari. O'zbekiston mikroiklim sharoitini hisobga olgan holda bolalar va o'smirlarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy muammolari. Jismoniy tarbiya vositalari ustidan shifokor nazoratini tashkillashtirishning asosiy mezonlari.

4-mavzu. Bolalar muassasalarida bolalarni chiniqtirishning asosiy mezonlari. Bolalar muassasalarida mehnat ta'limini tashkillashtirishga qo'yilgan gigienik talablar. Bolalar va o'smirlar mehnat faoliyatiga funktsional xususiyatlarini shakllanishi, o'suvchi organizmiga mehnatning ta'siri.

5-mavzu. Maktabdan tashqari muassasalarini loyihalashtirish va qurishning gigiyenik asoslari. Bolalar va o'smirlar muassasalarida sanitar epidemiologik qulaylikni ta'minlash gigienik talablari. Karantin guruhi infeksiyalarida tavsiya etiladigan zararsizlantirish chora-tadbirlari.

6-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan va surunkali kasalliklarga

chalingan bolalar muassasalarini loyihalashtirish va qurishning gigiyenik asoslari. Surunkali kasalliklari bor bolalarni o'quv tarbiyaviy muassasalariga bo'lgan gigiyenik talablar. Maktab internatlari va sanatoriy turidagi muassasalarga bo'lgan gigiyenik talablar. Yer maydonining asosiy bo'lgan zamonaviy sanitar-gigiyenik talablar.

7-mavzu. Yozgi sog'lomlashtirish muassasalarini faoliyatini samaradorligi. O'zbekiston Respublikasida yozgi sog'lomlashtirish maskanlari ijtimoiy - gigiyenik asoslari va sog'lomlashtirish chora-tadbirlar, yozgi sog'lomlashtirish maskanlari chora-tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazishda sanitariya vrachining tutgan o'rni. Yozgi sog'lomlashtirish maskanlari vrachi ish samaradorligini baholash ko'rsatkichlari. Davolash yunalishidagi yozgi sog'lomlashtirish maskanlariga ko'yilgan gigiyenik talablar.

8-mavzu. Bolalar va o'smirlar muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi tadbirlar tadbirining gigiyenik asoslari. Bolalar muassasalarida sanitariya va epidemiyaga qarshi tartibni tashkillashtirishda BO'G vrachining ish mazmuni. Bolalar va o'smirlar muassasalarida sanitar epidemiologik qulaylikni ta'minlash gigiyenik talablari. Karantin guruhi infeksiyalarida tavsiya etiladigan zararsizlantirish chora-tadbirlari.

9-mavzu. TTA kasalliklarini oldini olish chora tadbirlari. O'suvchi organizmning issiqlik va moddalar almashinuvining xususiyatlari. Bolalar va o'smirlar ovqatlanishining fiziologik me'yorlari. Bolalar jamoasida ovqatlanishni tashkillashtirish va tartibining gigiyenik mezonlari.

10-mavzu. Polimer maxsulotlariga qo'yiladigan gigiyenik talablari. Bolalar va o'smirlar muassasalarini loyihalashtirish va qurishda polimer materiallarga qo'yiladigan gigiyenik talabalar. Polimer materillarning turlari. Polimer materiallarni baholash tartibi. Polimer materiallar ustidan Davlat sanitariya nazorati olib borish tartibi.

11-mavzu. Bolalar va o'smirlar sog'lom turmush tarzini gigiyenik asoslari. Bolalar va o'smirlar orasida sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Sog'lom turmush tarzining muhim tashkil etuvchi tarkibiy qismlari. Bolalar va o'smirlar orasida sanitariya madaniyatini oshirish bo'yicha chora – tadbirlar majmuasi ishlab chiqish.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

6-semestr:

1-mavzu. Bolalar va o'smirlar salomatlik holatini xarakterlovchi ko'rsatkichlarni baholash usullari.

2-mavzu. Antropometrik tekshirish usullari, o'smirlarning jismoniy rivojlanish standartlarini ishlab chiqish.

3-mavzu. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari loyhasiga sanitar gigenik baho berish.

4-mavzu. MTTlar yer maydoni, havo-issiqlik almashinuvi, yoritilganlik tartibini baholash.

5-mavzu. MTT jihozlari va ularni joylashtirishga gigiyenik baho berish.

6-mavzu. Bolalar o'yinchoqlari va kiyimlariga gigiyenik baho berish.

7-mavzu. Maktablari loyihasini ekspertiza qilish

8-mavzu. Maktab jixozlarini sanitar-gigiyenik ekspertiza qilish

7-8-semestr:

1-mavzu. Maktab darsliklarini gigiyenik baholash usullari

2-mavzu. Maktabda o'quv jarayonini baholash usullari.

3-mavzu. Maktab o'quvchilari ovqatlanishining gigiyenik baholash

4-mavzu. Maktablarini kompleks sanitar-gigiyenik tekshirish

5-mavzu. Maktab internatlarini loyihasiga gigiyenik baho berish

6-mavzu. Litseylar loyihasiga gigiyenik baho berish.

7-mavzu. YoSMLar loyihasini gigiyenik baho berish.

8-mavzu. Kollejlar loyihasini sanitar-gigiyenik baho berish

9-mavzu. Organizmni ishlash qobiliyati holatini baholash usullari

10-mavzu. Organizmni funksional holatini baholash usullari

9-10-semestr:

1-mavzu. SEO va JSX markazi BO'G bo'limini tashkiliy uslubiy ishlari

2-mavzu. Dalolatnomalar, protokollar, xatlar va ma'lumotnomalar tuzish tartibini o'rganish

3-mavzu. Bolalar va o'smirlar muassasalarini qurish va qayta-qurish ustida OSN

4-mavzu. Bolalar va o'smirlar muassasalarida JSN olib borish tartibi.

5-mavzu. SEO va JSX markazi BO'G bo'limi OSN materiallari tahlili

6-mavzu. MTTlari yer maydoni va binosiga gigiyenik baho berish

7-mavzu. MTTlarni kompleks sanitar-gigiyenik tekshirish

8-mavzu. SEO va JSX markazi BO'G bo'limida JSN olib borish tartibi

9-mavzu. Maktablarda JSN olib borish va materiallari tahlili. ON

10-mavzu. Maktab, maktab-internatlarni kontrol sanitar-gigiyenik tekshirish

11-mavzu. Akademik litsey va litseylarda JSN materiallari tahlili

12-mavzu. Maktabdan tashqari muassasalarni sanitar gigiyenik tekshirish

13-mavzu. Kollej va litseylarni sanitar-gigiyenik tekshirish usullari

14-mavzu. Maktab va maktab-internatlarida JSN materiallari tahlili

15-mavzu. Maktab, maktab-internat va kasbiy maktablarni chuqurlashtirilgan sanitar gigiyenik tekshirish

16-mavzu. Kollejlarni kompleks sanitar gigiyenik tekshirishga tayyorgarlik

17-mavzu. Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlar muassasalarni sanitar gigiyenik tekshirish

18-mavzu. TTMLarni instrumental va laborator tekshirish va natijalarini tahlili

19-mavzu. YSMLarni sanitar – gigiyenik tekshirish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. "Loyihali o'qitish", "Keys-stadi" va boshqa texnologiyalaridan foydalaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

20-mavzu. Sanitar oqartuv ishlari, ilmiy amaliy ish. Yakuniy nazorat va OSKI

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlarda faol va interfaol usullar qo'llaniladi. "Loyihali o'qitish", "Keys-stadi" va boshqa texnologiyalaridan foydalaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50% amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni

chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;

- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;

- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

IV. Amaliy ko'nikmalar:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari loyihasini ekspertizasi;
2. Umum ta'lim maktablari loyihasini ekspertizasi;
3. Bolalar o'yinchoklarini gigienik baholash;
4. Bolalar kiyimlarini sanitar ekspertizasi.
5. Maktab darsliklarini gigienik baholash.
6. Maktabgacha ta'lim muassasalari kun tartibini baholash.
7. Maktabda o'quv-tarbiya jarayonini gigienik baholash;
8. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini gigienik baholash;
9. Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini gigienik baholash;
10. Jismoniy yuklamaning fiziologik egriligini aniqlang;
11. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga yetukligini aniqlash;
12. Bolalar poyabzallariga gigienik baho berish;
13. Maktab jihozlariga gigienik baho berish;
14. O'smirlarni kasbga yo'naltirilishini gigienik baholash;

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

6-semestr:

1. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining vazifalari;
2. Bolalar va o'smirlar gigienasi modulining tarixi;
3. MTT tarbiyalanuvchilari kun tartibini asosiy tarkibiy tuzilishi;
4. MTT tarbiyalanuvchilari ovqatlanishini tahlil qilish;
5. MTTlarida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
6. Uyushgan jamoalarda bolalar va o'smirlar kasallanishini o'rganish;

7-8 semestr:

1. Maktab o'quv qurollarini gigienik baholash;
2. Maktabda o'quv jarayonini gigienik baholash;
3. Maktab o'quvchilarini kun tartibini gigienik baholash;
4. Maktablarda jismoniy tarbiya darsini tashkillashtirishning gigienik asoslari;
5. Bolalarni chiniqtirish usullari;
6. Maktablarda tibbiyot hodimlarining davolash-profilaktika ishlari;

7. Umumta'lim maktablarda uchraydigan somatik kasalliklarni kelib chiqish sabablarini gigienik baholash;
8. Umumta'lim maktablariga qo'yiladigan gigienik talablar;
9. Kasbiy maktablar o'quvchilarining mehnat faoliyatini tashkillashtirish;
10. Kasbiy maktablarda o'quvchilar organizmiga tasir qiluvchi omillarni gigienik asoslash;
11. Umumta'lim maktablari jihozlarini joylashtirilishini gigienik baholash;
12. Bolalar jamoasini sog'lomlashtirishda bolalar va o'smirlar gigienasini ahamiyati, uning sanitariya sog'lomlashtiruvchi choralari va xavfli omillar bilan bog'liqligi, bu muassasalarda sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

9-10 semestr:

1. SEO va JSX BO'G bo'limining tashkiliy uslubiy ishi;
2. BO'GBi ishini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlari;
3. BO'G bo'limi vrachining dalolatnomalar, ma'lumotnomalar, xatlar, hisobotlar tuzish tartibi;
4. Bolalar va o'smirlar salomatlik holatini SEO va JSX BO'G bo'limining ish samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar;
5. Bolalar va o'smirlar muassasalarini qurish va qayta qurish ustidan ogohlantiruvchi sanitariya nazorati;
6. Polimer va qoplam materiallariga gigienik tavsif berish va baholash.
7. SEO va JSX OSN xujjatalarini o'rganish;
8. Turli ta'lim muassasalari uchun ajratilgan yer maydonini gigienik tekshirish;
9. Bolalar va o'smirlar muassasalarida joriy sanitariya nazorati olib borish usullari;
10. Turli ta'lim muassasalarini SEO va JSX buyrug'iga binoan gigienik tekshirish;
11. Turli ta'lim muassasalarini chuqurlashtirilgan sanitar-gigienik tekshirish;
12. Turli ta'lim muassasalarini joriy sanitariya nazorati va laborator-gigienik tekshirish materiallari tahlili;
13. Maktab, maktab-internatlarini kontrol sanitar- gigienik tekshirish;
14. Maktab, maktab internat va kasbiy maktablarni chuqurlashtirilgan sanitar gigienik tekshirish;
15. Kasbiy maktab, maktab-internat va maktablarda sanitariya nazoratining tekshiruv materiallari tahlili bo'yicha JSN;
16. Kasbiy maktablarni sanitar gigienik tekshirish;
17. Maktablarni chuqurlashtirilgan sanitar gigienik tekshirish va bayonnoma to'ldirish;

	18. Internet tarmog‘idan ma’lumotlar yig‘ish va undan xulosa, takliflar tuzishda foydalanish;
3.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim natijalari/ kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>6-semestr yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> • bolalar va o‘smirlar gigienasi modulining maqsadi va vazifalari haqida; • bolalar va o‘smirlar gigienasi modulining dolzarb muammolari; • bolalar va o‘smirlar salomatlik xolatini harakterlovchi ko‘rsatkichlar haqida; • bolalar va o‘smirlarni antropometrik ko‘rsatkichlari haqida; • bolalar va o‘smirlarni jismoniy rivojlanish standartlari haqida; • maktabgacha ta’lim tashkiloti loyihasini ekspertiza qilish va gigienik baxolash; • maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ovqatlanishini gigienik baholash haqida; • maktabgacha ta’lim tashkiloti kun tartibini sanitariya gigienik baholash to‘g‘risida <i>tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim)</i> • maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktabga yetukligini aniqlashni; • maktabgacha ta’lim tashkilotlarida laborator-instrumental tekshirish ishlarini olib borishni bilishi va ulardan foydalana olishni; • xronometraj, xronorefleksometriya, tremorometriya, dinamometriya, aktografiya, anketa so‘rov usullar yordamida qiyosiy analiz qilishni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma)</i> • maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlari va tarbiyalanuvchilarini sog‘lomlashtirish tadbirlari rejasini ishlab chiqish xamda epidemiologik tadbirlarni yaxshilash <i>kabi malakalariga (shu jumladan, gigienik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak. (malaka).</i> <p>8-semestr yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> • umumta’lim maktablari loyihalarini ekspertiza qilish va gigienik baholash xaqida; • maktab internatlari loyihalarini ekspertiza qilish va gigienik baholash xaqida; • umumta’lim maktablarida dars jadvali tuzishni baholash mezonlari haqida; • maktab yoshidagi bolalar ovqatlanishini gigienik baholash haqida; • umumta’lim maktablarida mehnat ta’limi darslarini tashkillashtirish


xususiyatlarini;

- maktab jihozlarini sanitar gigienik baholash haqida;
- maktab darsliklarini sanitariya gigienik baholash haqida;
- umumta'lim maktablarda o'quv jarayonini gigienik baholash haqida;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini gigienik baholash;
- o'smirlarni kasbga yo'naltirish va kasb tanlashning ahamiyati haqida;
- turli kasblarni tanlash uchun kasbiy maslahat va kasbga ajratishni tibbiy asoslari haqida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).**
- o'smirlar organizmiga asosiy kasbiy ishlab chiqarish omillarining ta'sirini;
- kasbiy maktablarda o'quv-ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlarini;
- maktabda o'quv jarayonini tashkillashtirishning uslubiy asoslarini;
- -maktab-internatlari va sanator-sog'lomlashtiruvchi muassasalarda kun tartibi va dars jadvalani tuzishning xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).**
- bolalarga ta'lim berishda kompyuterlardan foydalanishning gigienik aspektlarini ishlab chiqish;
- organizmning funktsional holati va ishlash qobiliyatini o'rganishning uslubiy asoslarini tadbqiq qilish **kabi malakalariga (shu jumladan gigienik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak. (malaka).**

10-semestr yakunida:

- SEX bolalar va o'smirlar gigienasi bo'limi ishining qonuniy xujjatlari va vrachning asosiy ishi haqida;
- BO'GB vrachining ish rejasi va to'ldirish tartibi haqida;
- xatlar, ma'lumotnomalar va dalolatnomalar turlari haqida;
- gigienik tekshirish turlari va samaradorligini baholash haqida;
- kasbiy maktablar loyihalarini ekspertiza qilish va gigienik baxolash
- to'g'risida **tasavvurga ega bo'lishi; (bilim).**
- turli ta'lim muassasalarida laborator-instrumental tekshirish ishlarini olib borishni bilishi va ulardan foydalana olishni;
- turli ta'lim muassasalarini loyihalashtirish, qurish va qayta ta'mirlashda sanitar-gigienik hamda sanitar-epidemiologik norma va qoidalarga rioya qilishda nazoratni;
- turli ta'lim muassasalari ovqat tayyorlash va ovqatlanish o'rinlarida sanitar-gigienik va epidemiologik taxlika omillarini baholash va profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni **bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma).**
- turli ta'lim muassasalarida sog'lom ovqatlanish borasida sanitariya maorifi

	<p>ishlarini targ‘ibot qilish;</p> <ul style="list-style-type: none"> • SEX BO‘GB bo‘limi OSN materiallarini tahlil qilish; • SEX BO‘GB bo‘limi JSN materiallarini tahlil qilish <i>kabi malakalariga (shu jumladan gigienik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak. (malaka).</i>
4.	<p style="text-align: center;">VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> • Interfaol o‘yinlar; • Seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • Guruhlarda ishlash; • Taqdimotlarni kiritish; • Individual loyihalar; • Jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy nazorat shaklida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha muvoffaqiyatli topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shayxova G.I. Bolalar va o‘smirlar gigienasi. Darslik. – Toshkent. TAFFAKUR-BO‘STONI. 2011yil 2. Shayxova G.I. Bolalar va o‘smirlar gigienasi. Darslik. – Toshkent. Toshkent tezkor bosmaxonasi. 2004 yil <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Демиденко Н.М. Гигиена. Учебник. – Ташкент. 2002. 2. Demidenko N.M. Gigiyena. Darslik. – Toshkent. O‘qituvchi. 2001. 3. «Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2015 y. 4. QMQ, San Q va M, Dav STI, uslubiy ko‘rsatmalar. <p style="text-align: center;">Internet saytlari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. www.tma.uz 2. www.ziyonet.uz 3. www.medlincs.ru 4. www.medbook.ru. 5. www.gov.uz 6. www.lex.uz

	<p>7. www.tma.uz 8. www.minzdrav.uz 9. www.mma.ru 10. www.referatw.ru</p>
7.	<p>Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p> <p>Modulning o'quv dasturi Toshkent tibbiyot akademiyasining 2023 yil "25" 04 dagi 01335-sonli buyrug'i (buyruqning 2 -ilovasi) bilan tasdiqlangan.</p> <p>O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  F.X. Azizova</p>
8.	<p>Modul uchun ma'sullar:</p> <p>N.J. Ermatov - TTA «Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi» kafedrası mudiri, t.f.d., dotsent J.B. Xayitov - TTA «Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi» kafedrası, assistenti. H.R. Haqberdiyev - TTA «Bolalar, o'smirlar va ovqatlanish gigiyenasi» kafedrası, assistenti.</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Ichki taqrizchi: Salomova F.I. - TTA «Atrof muhit gigiyenasi» kafedrası mudiri, t.f.d., dotsent.</p> <p>Tashqi taqrizchi: Xamrakulova M.A. - Sanitariya gigiena va kasb kasalliklari ilmiy tekshirish instituti davolash ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, t.f.d., dotsent.</p>